

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini yoritishda ilgari surilayotgan yangicha konsepsiyalar

Axmedov Jalol Tursunmuratovich

Jizzax politexnika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedراسى assistenti

jalolaxmedov2023@gmail.com

Jizzax politexnika instituti 104-24 TVM guruh talabasi

Ashurov Ruslan Muxammad o'g'li

Annotatsiya: Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ko'p millatli Markaziy Osiyo etnosiyosatining muhim jihatlari haqida fikr-mulohazalar haqida so'z boradi. Mintaqada qadim zamonlardan buyon yashovchi etnik guruhlar va elatlar o'rtasida madaniy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar vujudga kela boshlagan. Markaziy Osiyoning etnik xaritasi ko'p asrlar davomida deyarli o'zgarmasdan kelmoqda.

Ilmiy adabiyot ma'lumotlaridan foydalanish va ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlarning tarixiy jihatining murakkabligini va mintaqadagi xavfsizlik muammolarni aniqlash va echim topish doirasida mintaqada millatlararo munosabatlarni o'rganish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, tarix, millat, elat, millatlararo munosabatlar, Avesto, titul millat, o'troq, ko'chmanchi, Kushon, turklar, arablar, mo'g'ullar, xonliklar, SHayboniylar, Sovet xukumati, milliy siyosat.

Mustaqillik yillarida har bir bir Markaziy Osiyo davlati o'z milliy tarixini yozishga urinar ekan, turlicha usul va vositalarga murojaat qilganliklari ko'zga tashlanib, ular orasida yakdillik yo'qligi ko'rinib turadi. SHu bilan birga, markaziy osiyolik tarixchilar orasida mintaqa xalqlari tarixining umumiyiligini ilgari surgan, tarixiy voqeliklarni yoritishda ob'ektivlikni saqlashga chaqirgan, eski yondashuvlar, ayniqsa, sovet davrida shakllangan biryoqlamali yondashuvlardan voz kechib, jahon tarixshunoslik fanida qo'llanilayotgan yangicha usullarga murojaat qilinishi zarurligini ta'kidlayotgan tadqiqotchilar ham yo'q emas.

Ham sovet davri, ham mustaqillikning dastlabki davrlarida mintaqa xalqlari tarixi bo'yicha qo'llanilgan usullar orasida tarixiy voqeliklarni asosan boshqaruvchi sulolalarning siyosiy tarixini yoritish usuli ustuvor bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Bu usul jahon tarixshunosligida "sulolaviy yondashuv" deb ataladi va jahonning

ko'pchilik davlatlarida bu usuldan deyarli voz kechilib, tarixiy voqealarni sivilizatsiyalar tarixi doirasida yoritish keng qo'llanilayotgani ma'lum. Bu yondashuvga ko'ra, insoniyat tarixini sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi, ularning mazmun-mohiyati va sivilizatsiyalarning kishilik jamiyatiga qanchalik hissa qo'shganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. SHundagina insoniyat tarixini asosan urushlar va manfaatlar to'qnashuvidan iborat deb qarash va o'tmishni jangu-jadallar misolida yoritish kabi tamoyillardan voz kechiladi deb qaralgan "sivilizatsion yondashuv"chilik [1.1] Markaziy Osiyo olimlari orasida o'z tarafdorlarini topa boshladi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyoning turkiy tilli respublikalarida tarixni yoritish borasidagi yangicha konsepsiyalar u yoki bu darajada o'z aksini topgan bo'lsa-da, mintaqaning barcha respublikalarida bu holat turlicha bo'lib qolmoqda. Mintaqaning har bir respublikasi umumiy turkiy tarixdan ko'ra ko'proq o'zlari mavjud bo'lib turgan hududlar tarixiga birlamchi deb qarab, o'z hududida joylashgan tarixiy shahar, tarixiy sulolaning asosiy hududlari, poytaxti, muayyan bir sulolaga asos solgan shaxsning qaerda tug'ilgani kabi masalalarga urg'u berishayapti. Masalan, O'zbekistonda Qadimgi Baqtriya, Xorazm, Sug'd kabi miloddan oldingi mingyillikdagi o'troq davlatlarga ilk o'zbek davlatchiligining boshlanishi deb qaralsa [2.1], Turkmanistonda Qadimgi Marv, Parfiya davlatlarini turkman davlatchiligi sifatida qarash va shu tariqa o'rgatish ishlari olib borilayotir [3.1]. Qozog'istonda esa miloddan oldingi Skif-Sak, Usun, Xun davlatlari ilk davlatchilik bosqichi deb o'rgatish ishlari yo'lga qo'yilgan. YA'ni, har uchala davlatda ham ular egallab turgan hududlar tarixini birlamchi deb qarash birmuncha muqimlashib qoldi.

Ushbu davlatlardan birmuncha farqli holda Qirg'izistonda qirg'iz davlatchiligining boshlanishini miloddan oldingi mingyillikning so'nggi choragida Janubiy Sibirda mavjud bo'lgan Gyangun (Qirg'iz) siyosiy uyushmasiga olib borib taqash holati mavjud. Qizig'i shundaki, Markaziy Osiyoning qardosh turkiy davlatlari milliy davlatchiligi masalasida ikki xil yondashuv ko'zga tashlanib, har bir davlatning tarixchilari ham bugungi hududiy joylashuv, ham etnik kelib chiqishga ustuvor deb biladilar. Buni ushbu davlatlar tarixida Turk xoqonligi va Qoraxoniylar davlatini o'z milliy davlatchiligi sifatida ko'rish, qadimgi turk dostonlarida o'rin olgan yarim afsonaviy shaxslarni, masalan, Alpomishni o'z milliy qahramoni sifatida talqin qilish kabi omillar ko'rsatib turibdi.

Markaziy Osiyo xalqlarining ajralmas bir qismi bo'lmish tojik xalqi tarixini yoritishda esa birmuncha boshqacharoq holat kuzatiladi. O'z milliy tarixini qadimgi forslar va sharqiy eroniy xalqlar bilan bog'lab qaraydigan tojikistonlik tarixchilar

asosiy e'tiborni qadimgi eroniy sulolalarga qaratadilar. SHuningdek, ularda Qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug'dni o'zlarining ilk milliy davlatchilik ob'ektlari sifatida talqin qilish keng yoyilgan. SHu bilan birga, Tojikiston tarixida yuqorida keltirib o'tilgan turkiy sulolalarni mintaqaga "kelgindi" deb qarash, yunonlar, arablar, mo'g'ullar va ruslar singari ularni ham "bosqinchi" deb yoritish tamoyili anchagina muqimlashib qolgan [4.1]. Qizig'i shundaki, keyingi o'nyilliklarda bu erda Eron hududida yashab o'tgan Ahamoniylar, Parfiya va Sosoniylarni o'z milliy davlatchiligi namunalari sifatida ko'rish holati anchagina keng yoyildi. Demak, Markaziy Osiyoning turkiy davlatlarida bo'lgani kabi Tojikistonda ham o'z xalqi tarixini yoritishda ham hududiy, ham milliylik nuqtai nazaridan yoritish holati mavjud.

Ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, aslida Markaziy Osiyo turkiy xalqlari tarixini yoritishda unchalik katta muammolar ko'zga tashlanmaydi. YUqorida keltirib o'tilgan turkiy sulolalar tarixi ularning har bir uchun milliy tarix, milliy davlatchilikning bir ob'ekti deb qaralishi, tarixiy shaxslarga "milliy qahramon" sifatida qarash shakllantirilgan.

Markaziy Osiyo davlatlarida har bir mustaqil davlatning o'z tarixini yoritishda bunday yondashuvlarining negizida bir qator omillar yotadi. Ular orasida jahon tarixshunosligida "konstruktivistik usul" deb ataladigan yondashuv ustuvorlik qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, bu kunda dunyodagi davlatlarning ko'pchiligi muayyan bir insonlar guruhi – siyosiy elita, boshqaruvchi toifa, partiya yoki shunga o'xshash insonlar guruhi tomonidan yaratilgan bo'lib, milliy ong, milliy mansublik, millat va hokazo tushunchalar ular tomonidan maxsus yaratiladi. YA'ni davlat va millat jamiyatning shunday guruhlariga tomonidan maxsus yaratiladi. Boshqacha aytganda esa, aholining muayyan bir qismi bitta siyosiy uyushma qo'l ostida ko'p yillar davomida yashashi natijasida ular mavjud siyosiy tuzum, siyosiy rejim, mafkura ta'siri ostida bitta millatga aylanib boradi. Bunda etnik mansublik, til va boshqa omillar unchalik muhim rol o'ynamaydi.

Masalan, XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi va unga qo'shni hududlarda yashagan mahalliy ziyolilar, xususan, jadidar jahondagi, xususan, qardosh Turkiyadagi siyosiy, mafkuraviy va madaniy omillar - siyosiy oqim va tushunchalardan ta'sirlanib, Markaziy Osiyoda yagona turk millatini yaratishga uringan edilar. Ular til, din, madaniy, geogafik, tarixiy birlik kabi omillarga tayanib, Turkiston davlatini yaratishga harakat qilgan bo'lsalar-da [5.1], SHO'rolar hukumatining aralashuvi bilan bu g'oya amalga oshmay qoldi va jadidlar alohida-alohida turkiy xalqlarning "konstruksiya qilinishi", ya'ni "yaratilishi"da faol ishtirok etdilar. Buning yorqin o'rnagi o'zbek ziyolilari bo'lib, turli shevalarda so'zlashuvchi,

turli madaniyat va etnik mansub bo‘lishlariga qaramay, “yagona o‘zbek millati”ni yaratish ishini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirishga erishdilar.

Markaziy Osiyoda milliy chegaralanish ishlari olib borilishidan oldin “yagona Turkiston”, “Turkiston muxtoriyati”, “turkiy xalqlar birligi” kabi tushunchalar anchagina keng yoyilgan bo‘lib, bu g‘oyaning amalga oshirilishi uchun o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik jadidlari muayyan amaliy ishlarni bajargan edilar. Biroq, bu g‘oya Markaziy Osiyo xalqlarini salmog‘ini orttirib yuborishidan cho‘chigan bolsheviklarga yoqmaganligi tufayli mintaqada millatlarga asoslangan ittifoqdosh respublikalar tuzishga qaror qilindi va bu yo‘lda turli targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

SHunga o‘xshash holatni Tojikistonda ham ko‘rish mumkin. XX asrning ilk choragida turkistonliklar g‘oyasining ilg‘orlaridan bo‘lgan S. Ayniy boshchiligidagi tojik ziyolilari yagona tojik xalqini yaratish uchun tojik adabiy tili, zamonaviy tojik adabiyoti, tojik madaniyatiga xos deb bilinadigan madaniy unsurlar (mas. Firdavsiyning “SHohnoma”si) va hokazo kabi vositalardan unumli foydalandilar. Qirg‘izlar uchun “Manas” dostoni va ijodkor Toktogul, turkmanlar uchun “Go‘ro‘g‘li”, Mahdumquli va hokazolar millatni birlashtiruvchi madaniy omillar sifatida qaralishini ham bunga misol sifatida keltirish mumkin. Qizig‘i shundaki, milliy respublikalar tashkil topgach, birmuncha sun‘iy bo‘lsa-da, qozoq uchun ayri, o‘zbek va yoki boshqa bir markaziy osiyolik millat uchun alohida-alohida milliy kiyim-bosh tushunchasi yaratildi. Aslida mintaqa xalqlarining kiyinish madaniyatida muayyan bir milliy omil emas, tabiiy-geografik, ya‘ni iqlim bilan bog‘liq omillar asosiy rolni o‘ynagan bo‘lib [6.1], sovet davrida bu an‘ana birmuncha buzilgani va har bir millatga farqli kiyimlarni xos qilib ko‘rsatish tamoyili kuchaydi.

SHuningdek, Xorazm vohasidagi mahalliy aholi o‘zbek, qoraqalpoq, turkman, qozoq kabi birmuncha farqli tillarda so‘zlashsalar-da, “davlat tilga qarab tashkil etilishi kerak” degan tushuncha deyarli yo‘q edi. Evropalik tadqiqotchilardan biri A. Xaugen tomonidan nashr qilingan “Sovet O‘rta Osiyosida milliy respublikalarning tashkil etilish” nomli yirik monografiyada Xorazm Xalq respublikasida kechgan siyosiy jarayonlarga katta e‘tibor qaratilib, tadqiqotchi o‘zining ushbu asarida Turkiston o‘lkasidagi siyosiy-ma‘muriy islohotlarni to‘xtalar ekan Xorazmdagi voqeliklarni misol sifatida keltiradi [7.1].

SHunga o‘xshash sobiq Buxoro amirligi aholisi – Zarafshon vohasi aholisi, buxoroliklar, qashqadaryoliklar va surxondaryoliklar va hokazo hududlarda yashovchi o‘zbeklar uchun Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasiga xos “do‘ppi” kiyish juda kam uchrar edi. Ham kiyinish madaniyatida, ham so‘zlashuv tilida anchagina farqliliklar

bo‘lishiga qaramay, ziyolilarning yagona o‘zbek millatini yaratishda amalga oshirgan ishlarini o‘z samarasini berdi va xalq “o‘zbek” deganda boshida do‘ppi, egnida to‘n (chopon) kiygan insonlarni tushuna boshladi.

Bu amaliyotning amalga oshirilishida mahalliy ziyolilar matbuot, tasviriy san‘at, teatr, badiiy adabiyot, qo‘shiqchilik va musiqadan unumli foydalanishdi. turkistonlik jadidlar va ularning izdoshlarining ma‘rifatparvarlik harakatlari va milliy birlik tuyg‘usi bosh rolni o‘ynab, bir tomondan kommunistlar tomonidan yagona “Sovet xalqi” tushunchasi keng targ‘ib qilinayotgan bir paytda unga parallel o‘laroq milliy taraqqiyparvarlar, xususan, jadidlar orasidan chiqqan siyosat va madaniyat arboblari, shoir va yozuvchilar, matbuot xodimlari, ta‘lim-tarbiya va ijtimoiy-iqtisodiy sohasida ishlovchi o‘zbek ziyolilari jiplashgan barqaror o‘zbek xalqi tushunchasini keng yoyishga urinadilar va ma‘lum ma‘noda buni uddalaydilar [8.1]. Adib Halid bu yo‘lda qanchalik xavf-xatarlar bo‘lishiga qaramay o‘zbek ziyolilari o‘z milliy tarixini asos qilib olgan holda XX asr boshlarida Turkiston jadidlari orzu qilgan “Buyuk Turkiston”ni tuzish g‘oyasi Sovet hukumati tomonidan yo‘q qilib tashlangach, ushbu g‘oyani O‘zbekistonni yaratish g‘oyasi bilan amalga oshira boshlaydi” [9.1] deb ochiqalaydi.

XX asrning 20- yillarigacha mintaqada yagona davlat qurishni maqsad qilib olgan o‘zbek, qozoq yoki tojik ziyolilarining bolsheviklar ta‘siri ostida alohida-alohida millatlar asosida milliy respublikalar tuzishga urinishlar o‘sha kezlardayoq ancha-muncha ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Masalan, qaysidir bir hudud – shahar yoki yirik aholi maskanining qaysi ittifoqdosh respublika tarkibiga o‘tishi, chegaralar belgilanishida mahalliy aholining nuqtai nazari bilan hisoblashamaslik, “millat” deganda qanday tushunchalar ustuvorlik qilishi kabi masalalarda shoshma-shosharlik yo‘l qo‘yilgani buning yorqin o‘rnaklaridir.

Deyarli bir asr davom etgan bunday hatti-harakatlar natijasida mintaqa xalqlarining milliy mansubligi, milliy madaniyati, milliy tarixi degan tushunchalar etakchilik qila boshladi va ming yillar davomida mavjud bo‘lgan an‘ana – davlatlarning barpo qilinishida milliylik emas, geografik joylashuv, diniy birlik kabi tamomoyillarga putur etdi.

Jahon tarixshunosligida bu kabi hatti-harakatlar “konstruktiv yondashuv” deb atalib, qariyb yuz yil ichida Markaziy Osiyoda davlat-millat tamoyillari ustuvorlik qila boshladi. Ayniqsa, mutsaqillik yillarida bu tamoyil yanada kuchayib, davlat va elitaning istaklari natijasida boshqalardan farqli, faqatgina muayyan bir millatga tegishli madaniyat, madaniy meros, shonli tarix “buyuk ajdod”, “buyuk xalq”, “kelgindi” yoki “avtoxton”, “buyuk tarix egalari” yoki “eng qadimiy xalq” degan

iboralar bot-bot qo‘llanila boshladi. Bu esa ko‘shni respublikalar orasidagi birdamlikning susayishiga, bir-biriga teskari tarix yozish natijasida o‘zaro g‘ashlikning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Biroq, keyingi yillarda Markaziy Osiyo etakchilari, ziyoli qatlam va oddiy aholi ham kelajak va rivojlanish o‘zaro hamkorlikda ekani, buning uchun kerakli mexanizmlari yaratilishi kerakligini tushunib etdi. Markaziy Osiyo xalqlari umumiy tarix konsepsiyalarini ishlab chiqish ana mexanizmlaridan biri deb qarala boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toynbi A. Dj. Postijenie istorii: Sbornik / Per. s angl. E. D. Jarkova. – M.: Rolf, 2001.
2. Qadimgi Baqtriya podsholigi “Katta Xorazm» (eramizgacha bulgan VII—VI asrlar) / O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: (Ocherklar) / Mas’ul muxdrirlar: D. A. Alimova, E. V. Rtveladze. – T.: «SHarq», 2001. – B. 8-14.
3. Turkmenbashi S. Ruxnama. – Ashgabat, 2001. – S. 28-30, 37, 98-100; amoliddin Sh. Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar. Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo mamlakatlari) mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalariga mo‘ljallangan darslik. Qo‘lyozma huquqida. – Toshkent – 2019. – B. 44-47.
4. Boymatov L. D. Tamerlan i samarkandsy (K probleme istoricheskoy pamyati) // "Turan-name", №4, 2021. – S. 61-96.
5. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar (1917-1935 yillar). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2000.
6. Khalid A. Making Uzbekistan: nation, empire, and revolution in the early USSR. – New York: Cornell University Press, 2015; Xolid A. O‘zbekistonning tavalludi: Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi / <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/jadid-matbuoti/931-maqola.html>
8. **Abashin S. Natsionalizmy v Sredney Azii: v poiskax identichnosti. – SPb.: Aleteyya, 2007. – S. 5-14.**
9. Haugen A. The Establishment of National Republics in Soviet Central Asia. – London, 2003. – R. 2-4, 73, 76-80, 90-93, 96-98, 100-102, 107, 114, 116-117 va b.
10. Axmedov, J. T., & Guljan Kobeyevna, O. (2024). History of inter-ethnic relations in Central Asia and stages of development.

11. Tajibayev, M. A., & Axmedov, J. T. (2022). Sinergetik yondashuv-yoshlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishning asosiy jihatlaridan biri sifatida. *Scientific progress*, 3(3), 527-532.
12. Axmedov, J. T., & Tajibayev, M. A. (2021). Young people from different information attacks care is a requirement of the time. *Scientific progress*, 2(5), 549-553.
13. Tursunmuratovich, A. J., & Abdurashidovich, T. M. (2021). Ensuring the rule of law-as an urgent direction in the appeal. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 2(2), 164-169.
14. Tajibaev, M. A., & Akhmedov, J. T. (2021). The young spiritual-moral of the global network effects on education. *Scientific progress*, 1(5), 708-711.